

TURIZMNING XIZMATLAR EKSPORTIDAGI RO'LI VA UNING TO'LOV BALANSIGA TA'SIRI

Saurova Sevinchoy Baxrombek qizi

Urganch Davlat Universiteti Bank ishi va auditi yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted:05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Turizm, xizmatlar
eksporti, to'lov balansi,
valyuta tushumi, tashqi
savdo, iqtisodiy ta'sir,
milliy daromad,
makroiqtisodiy
barqarorlik, xalqaro
tajriba,
raqobatbardoshlik,
iqtisodiy o'sish,
mehmonxona biznesi,
transport infratuzilmasi,
marketing,
investitsiyalar, statistik
tahlil, turizm siyosati,
eksport
diversifikatsiyasi, davlat
strategiyasi....*

Mazkur maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi xizmatlar eksporti salohiyatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, uning to'lov balansiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, xalqaro turizm oqimlarining valyuta tushumlariga ta'siri, xizmatlar sektori eksportining tarkibiy o'zgarishlari va mamlakat to'lov balansining joriy hisobiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada xalqaro tajriba va statistik ma'lumotlarga asoslangan holda, turizmning tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyati o'rganilgan. Xususan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali xizmatlar eksporti hajmini oshirish yuzasida tavsiyalar ham berilgan..

Kirish

Globallashuv jarayonining tobora jadallashuvi hamda iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi fonida turizm sohasi dunyo miqyosida nafaqat madaniy aloqalarni mustahkamlovchi vosita, balki iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, xizmatlar eksportining tarkibida turizmning tutgan o'rni yildan-yilga ortib, mamlakatlarning to'lov balansiga har tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Xizmatlar eksporti tarkibida turizmning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani, uni iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omillardan biriga aylantirmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun turizm to'lov balansini ijobiy tomonga o'zgartirishda, valyuta tushumlarini oshirishda va aholi uchun yanggi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, turizmning xizmatlar eksportidagi o'rni va uning mamlakat to'lov balansiga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur tahlil qilish bugungi dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Asosiy qism

Bugungi kunda globallashuv sharoitida xizmatlar eksporti milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, turizm sohasi xizmatlar eksportida alohida o'rin egallab, mamlakat to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xizmatlar eksportining o'sishi bevosita valyuta tushumining ko'payishiga, iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga va milliy yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o'sishiga xizmat qiladi.

Turizm sohasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u real mahsulot ishlab chiqarmasdan turib, muayyan daromad keltiradi. Mamlakatga tashrif buyurgan turistlar tomonidan xorijdan keltirilgan valyuta vositalari mamlakat ichida ishlatiladi va bu jarayon ichki iqtisodiyotning pul aylanmasini faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xizmatlar eksportining to'lov balansiga ahamiyati, joriy operatsiyalar hisobvarag'ida namoyon bo'ladi. Turizm xizmatlari orqali tushgan valyuta daromadlari mamlakatdagi to'lov balansining taqchilligini kamaytiradi va shu bilan birga, tashqi savdo saldosi ijobiy shakllanishiga yordam beradi. Misol uchun, Ispaniya, Turkiya, Tailand kabi bir qancha davlatlar to'lov balansini muvozanatlashtirishda asosan turizm xizmatlaridan samarali foydalanib kelmoqda.

Hozirda, O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu, avvalo, sohani isloh qilish, sayyohlar uchun qulay infratuzilmani yaratish, viza rejimining yengillashtirilishi va xalqaro targ'ibot ishlarining kuchaytirilishi bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, xorijiy turistlar tomonidan O'zbekistonga

olib kirilgan valyuta tushumlari yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa mamlakat to'lov balansining ortishiga va milliy valyutaning nisbiy mustahkamligiga xizmat qiladi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunlariga qadar O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni 6,6 million nafardan oshdi. Bu esa 2019-yilga nisbatan 15 foizga ko'pdir (manba: <https://stat.uz>). Turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 2,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu xizmatlar eksportining umumiy hajmida muhim ulishni egallaydi. Masalan, Xorazm viloyatida 2024-yil davomida 800 mingdan ortiq ichki va tashqi sayyoh ro'yxatga olingan. Turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, xizmat ko'rsatish tarmog'ining kengayishi natijasida ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni keskin oshgan. Natijada, viloyat 150 million AQSH dollari miqdorida xizmatlar eksporti hajmini shakllantirishga erishdi. Bu esa mahalliy byudjet daromadlarining oshishiga va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xizmatlar eksportida turizmning ulushini oshirish orqali yanggi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholi bandligi ta'minlanadi va hududiy iqtisodiy taraqqiyot rag'batlantiriladi. Chunki turizm nafaqat xorijiy sayyohlarni jalb qiladi, balki, transport, mehmonxona, ekskursiya xizmatlari, qo'l xunarmandchiligi, madaniy tadbirlar, restoran, gid hamrohlik xizmatlari kabi ko'plab yo'nalishlarda qo'shimcha iqtisodiy faollikni yuzaga keltiradi.

Misol uchun, turizm sohasida yaratilgan har bir ish o'rni bevosita yoki bilvosita kamida 2 yoki 3 ta boshqa sohada ham bandlikni ta'minlaydi. Bundan ko'rinadiki, turizm boshqa sohalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p sektorli tarmoq.

Ayniqsa, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlar- Buxoro, Samarqand Xiva, Toshkent, Shahrisabz va Qo'qon shaharlarida turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiyalar soni tobora ortib bormoqda. Ushbu hududlar o'zining boy tarixi va qadimiyligini saqlab qolgan inshootlari, mahalliy madaniyati, turlicha urf-odatlar, milliy taomlari va qiziqarli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Shu bilan birga, turizmning rivojlanishi mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi, xususan, milliy suvenirlar, mahalliy taomlar va hunarmandchilik mahsulotlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yanggi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida mahalliy aholining daromadlarini oshirib, hududlarda kambag'allik darajasini kamayishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xizmatlar eksportini oshirishda turizm iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil bo'libgina qolmay, balki hududiy ijtimoiy rivojlanishning ham muhim drayveriga aylanib bormoqda.

Turizm xizmatlar eksporti mamalakatning xizmatlar balansi ko'rsatkichlarini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda xizmatlar eksporti tarkibida turizm xizmatlarining ulushi 36 foizni tashkil etgan. Bu raqam 2022-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish xizmatlar balansidagi salbiy saldoni sezilarli darajada kamaytirgan. Bu shuni anglatadiki, turizm sohasidan olinayotgan eksport tushumlarining import xarajatlariga nisbatan ustunligi mamlakatning joriy balansini yaxshilashga xizmat qilmoqda hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa

Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat madaniy almashinuv vositasi, balki xizmatlar eksportining muhim tarkibiy qismi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda sayyohlar oqimi oshgani sayin infratuzilma ham rivojlanmoqda, xususi sektor faollashmoqda va yanggi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Xizmatlar eksportining tarkibida turizm ulushining ortib borayotgani, valyuta tushumlarini ko'paytirish bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda hamda importni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu orqali mamlakatning iqtisodiy suvereniteti va global raqobatbardoshligi mustahkamlanmoqda. Bu esa turizmni strategik iqtisodiy yo'nalish sifatida rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salvatore D. (2013). *International Economics*. Wiley.
2. Krugman P. R., Obstfeld M., Melitz M. (2018). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education.
 - Xalqaro xizmatlar oqimi, valyuta balansining ta'siri.
3. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hisobotlari:
 - Turizm eksporti, turistik oqimlar va ularning makroiqtisodiy ta'siri haqida eng yangi statistik va tahliliy ma'lumotlar.

<https://www.unwto.org/statistics>
4. IMF Balance of Payments Manual (BPM6):
 - Xizmatlar eksportining to'lov balansidagi hisobga olinishi haqida batafsil qo'llanma.

5. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi va Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari

– O'zbekiston bo'yicha aniq statistikalar va tahlillar.
<https://uzbektourism.uz>, <https://cbu.uz>

6. Rustamov Sh.R. (2019). *Xalqaro iqtisodiyot*. – O'zbekiston oliy ta'limi uchun darslik.

– To'lov balansi va xizmatlar eksporti masalalari yoritilgan.

7. Xamidov A.X., Rajabov N.N. (2020). *Turizm iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

– Turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va uning eksport daromadlariga ta'siri.

